

## DAVLAT XIZMATCHILARI VA ULARNI RAG‘BATLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

**Niyozmurodov Zafarali Zokirjon o‘g‘li**

Tog‘-kon sanoti va geologiya vazirligi Geologiya fanlari universiteti bosh mutaxasisi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada, davlat xizmatchilarini rag‘batlantirishning zamonaviy mexanizmlarini tahlil qilish, O‘zbekistondagi davlat xizmatchilarini rag‘batlantirishning asosiy jihatlari, tashkilotdagi davlat xizmatchilari faoliyatini rag‘batlantirish yo‘llarini qamrab olish nazarda tutilgan.

**Kalit so‘zlar:** davlat xizmatchilarini rag‘batlantirishning zamonaviy mexanizmlari, davlat xizmatida mehnat motivatsiyasini yaxshilash, Davlat xizmatchilari maqomi.

Davlat xizmatini hech shubhasiz jamiyat sivilizatsiyasining eng muhim ijtimoiy kashfiyotlaridan biri, deyish mumkindir. Davlat xizmati davlat tizimining asosiy negizini, uning samarali ishlashini ta‘minlashga yo‘naltirilgan asosiy institut sanalib, bunda davlat xizmatchilarining o‘rni ahamiyatlidir. Zero, davlat xizmatchisi - bu davlat organlari vakolatlarini bajarishni ta‘minlash bo‘yicha professional faoliyatni amalga oshiruvchi shaxs hisoblanadi. Ushbu holatda davlat xizmatchisi va davlat (davlat organi) o‘rtasida davlat-xizmat munosabatlari vujudga kelib, ular o‘zaro huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladi.

Davlat xizmatchisi - davlatni malakali boshqaruvchisi, balki vakolati doirasiga davlat vazifalarini amalga oshirish va davlat hokimiyati organlarining vakolatlarining malakali ijrosini ta‘minlashga kiradigan mansabdor shaxs hisoblanadi. Davlat xizmatchisi - bu oddiy xodim emas, u davlat topshirig‘i va manfaatlari bo‘yicha uning nomidan harakat qiluvchi insondir. U fuqarolar manfaatlari yo‘lida davlat organlari tizimida davlat hokimiyati vakolatlarini bajaradigan, xalq ifoda etib, ijtimoiy masalalarni hal etadigan maxsus ijtimoiy fuqarolar birligining vakili hisoblanadi. Davlat xizmatchilari maqomining farqi, masalan, maqsadi foyda olish bo‘lgan tadbirkorlardan asosiy farki ana shundadir.<sup>1</sup>

O‘zbekistonda davlat xizmatchilarini quyidagicha ta‘riflash mumkin:

<sup>1</sup> Davlat boshqaruvi akademiyasi "Davlat xizmati" E.T.Hojiev, G.S.Ismoilova Toshkent.2015

- davlat xizmatchisi o'z faoliyatini davlat xizmatchilari lavozimlari reestriga kiritilgan lavozimlarda amalga oshiradigan O'zbekiston Respublikasi fuqarosidir;<sup>1</sup>

- chet davlatlar fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi prezidentining alohida qarorlarida belgilangan tartibda davlat xizmatchilari lavozimlarini egallashlari mumkin;

- davlat xizmatchilari lavozimlari reestriga kiritilgan lavozimlarni egallab turgan davlat xizmatchilarining faoliyati davlat xizmatiga oid qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi;

- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy xizmat va huquqni muhofaza qilish organlarida xizmat qilish davlat maxsus xizmati bo'lib, alohida qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Davlat xizmatchilari - huquqning individual sub'ektlaridan iborat bo'lgan ijtimoiy guruh bo'lib, ma'lum bir haq evaziga davlat organlarining vazifa va funksiyalarini amalga oshiradilar.

Xizmatchilar to'g'risida batafsil tushuncha xosil qilish maqsadida, ularning faoliyatini jamiyatning turli tashkilotlarida (korxonalar, muassasalarida) band bo'lgan boshqa shaxslar faoliyati bilan taqqoslash kerak:

- xizmatchilar turli tashkilotlarda ma'lum bir lavozimlarni egallaydilar;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi xizmatchilari;
- davlat organlari xizmatchilari;
- mahalliy davlat hokimiyati organlari xizmatchilari;
- nodavlat tashkilotlarning xizmatchilari,
- notijorat, jamoat

Ularning faoliyati aqliy xususiyatga ega, ya'ni ular bevosita moddiy boyliklarni yaratmaydi. Lekin xizmatchilar moddiy ishlab chiqarish sohasida ham faoliyat yuritishi mumkin, masalan, tashkiliy, ishlab chiqarish jarayonini texnologik ta'minlash, loyihalarni tayyorlash, marketing, tadqiqot faoliyati va boshqalar;

- xizmatchilar hokimiyat faoliyatini (tashkillashtirish, farmoyish berish, rahbarlik, nazorat) amalga oshiradilar hamda tegishli tashkiliy-farmoyish berish va ma'muriy-xo'jalik vakolatlariga ega bo'ladi; ular davlat va jamoat majburlor choralarini qo'llashlari mumkin. Har qanday tashkilotdagi xizmatchilar, asosan boshqaruv funksiyasini amalga oshiradilar;

- xizmatchilar o'zlarining vakolatlarini, funksiyalarini, qoida bo'yicha, ma'lum bir haq evaziga amalga oshiradilar.

---

<sup>1</sup> <https://sof.uz/z58>;

Yuridik adabiyotlarda davlat xizmatchilarining turli asoslarga ko'ra guruhlariga bo'linishi, ya'ni tasniflanishini ko'rish mumkin. Jumladan, D.M.Ovsyankoning fikricha davlat xizmatchilarini quyidagilarga bo'lish mumkin:<sup>1</sup>

**1. Davlat hokimiyati organlarining faoliyat doirasiga qarab davlat xizmatchilari:**

- respublika miqyosida faoliyat ko'rsatuvchi xizmatchilar;
- mahalliy miqyosda faoliyat ko'rsatuvchi xizmatchilar;

2. Davlat xizmatining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda davlat xizmatchilarini:

- fuqarolik davlat xizmatchilari;
- harbiy davlat xizmatchilari (masalan, harbiy xizmatchilar, ichki ishlar organlari xizmatchilari);

**3. Hokimiyatning bo'linish prinsipidan kelib chiqqan holda davlat xizmatchilari;**

- qonunchilik hokimiyati organlarining xizmatchilari;
- ijro hokimiyati organlarining xizmatchilari;
- sud hokimiyati organlarining xizmatchilari;

4. Mansab vakolatlarining hajmiga ko'ra davlat xizmatchilari:

- mansabdor shaxslar; mansabdor shaxslar tarkibiga kirmaydigan boshqa xizmatchilar;

5. Xizmat muddatining davomiyligiga ko'ra davlat xizmatchilarini:

- ma'lum bir muddatga tayinlanadigan (saylanadigan) xizmatchilar;
- belgilanmagan muddatda tayinlangan xizmatchilar;
- sinov muddati bilan tayinlangan xizmatchilar va boshqalarga bo'linadi.<sup>2</sup>

Xizmatchilar o'rtasida davlat va mahalliy organlarda faoliyat ko'rsatuvchi xizmatchilarni alohida ko'rsatib o'tish mumkin. Davlat va mahalliy davlat hokimiyati organlarining xizmatchilari davlat va mahalliy organlarning manfaatlarini ko'zlab, ularning nomidan harakat qiladilar hamda davlat va mahalliy ma'muriyatning vakillari bo'lib hisoblanadi.

Davlat va mahalliy organlarning xizmatchilari davlat va mahalliy organlar oldida turgan vazifa va funksiyalarni amalga oshiradi.

Davlat xizmatchisi davlat lavozimini egallagan, pul mukofoti evaziga mazkur davlat organining funksiyalarini amalga oshiradigan shaxsdir.

<sup>1</sup> Д.М.Овсянко Ключевые показатели эффективности на службе. Эффективность работы госслужащих // Вестник Евразийской науки, 2018 №2.

<sup>2</sup> Административное право. Москва, Юристъ, 2000, 211-216-б.

Davlat xizmatchilarining aksariyati ijro-farmoyish berish (tashkillashtirish) vakolatlarini va ijtimoiy-madaniy faoliyatni amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Faqatgina ayrim davlat xizmatchilari maxsus davlat mansablarini egallaydi, masalan, odil sudlovni va prokuror nazoratini (ya'ni, huquqni muhofaza qilish faoliyatini) amalga oshiradi.

Davlat xizmatchisi tushunchasini uch ma'noda ko'rib chiqish mumkin:<sup>1</sup>

1. Davlat-huquqiy nuqtai nazaridan davlat xizmatchisi - bu turli xususiyatdagi va ahamiyatdagi vakolatlarga ega bo'lgan davlatning (davlat organlarining) "xizmatchisi" xisoblanadi.

Xizmatchilar davlatni davlat ma'muriyatining ichidagi turli ijtimoiy munosabatlarda yoki tashqi aloqalarda davlat nomidan harakat qiladi.

Davlat xizmatchisi - davlat va jamiyat taraqqiyotining mahsuli bo'lib, davlat funksiyalarini amalga oshiradi;

2. Ma'muriy-huquqiy nuqtai nazaridan davlat xizmatchisi - maxsus xokimiyat, tashkillashtiruvchi-farmoyish beruvchi vakolatlarga ega. Davlat xizmatchisi yuridik (huquqni muhofaza qiluvchi) vakolatlarni amalga oshirish va ma'muriy-huquqiy sanksiyalarni qo'llash huquqiga ega bo'lgan hokimiyat vakilidir;

3. Jinoyat-huquqiy nuqtai nazaridan davlat xizmatchisi - jinoiy javobgarlikning maxsus sub'ekti hisoblanadi (davlat xizmatchisi mansabdor shaxs - mansab jinoyatlari uchun javobgarlikka tortiladi).

Har bir davlat xizmatchisi egallab turgan mansabidan kelib chiquvchi ma'lum bir vazifalarni bajarishi kerak. Davlat mansabi - bu davlat xizmatchisining ish (xizmat) joyi hisoblanadi. Har bir davlat mansabi davlat xizmatining asosiy elementlaridan biri bo'lgan shtat birligiga kiritiladi. Shtat jadvali davlat organi (tashkiloti)da tashkil etilgan mansablardan iboratdir. Davlat tashkilotlarida mansablar davlat hokimiyati sub'ektlari tomonidan tashkil etiladi.

Davlat xizmatchisi ma'lum bir mansabni uzoq vaqt davomida (masalan, butun faoliyati davomida) egallashi mumkin. Davlat xizmatchisi davlat organida faoliyat yuritishi jarayonida mansab bo'yicha harakatlanishi mumkin, ya'ni davlat xizmatida malaka darajalar joriy etilgan. Malaka darajalar davlat xizmatchisiga bir mansabdan ikkinchi mansabni egallashini (masalan, yuqoriga yoki pastga qarab xarakatlanishini) belgilab beradi. Ular butun professional hayot jarayonida davlat xizmatchisini davlat bilan bog'lab turadi hamda davlat va jamiyatdagi munosabatlarning muvozanatini ta'minlaydi.

<sup>1</sup> Стариков Ю.Н. Службное право. Москва, БЕК, 1996; Алехин А.П., Кармолицкий А.А., Козлов Ю.М. Административное право.-Зерцало, 1998; Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Стариков Ю.Н. Административное право. - М.: Норма, 2004; Козлов Ю.М. Административное право. - М.: Юристъ, 2003;

## XULOSA

Davlat xizmati tizimida mehnat unumdorligini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarning past samaradorligi taklif etilayotgan rag'batlarning davlat xizmatchilari uchun ahamiyatsiz ekanligi va ularning qiziqishlarini faollashtirishga hissa qo'shmasligi bilan bog'liq ekanligini ma'lum.

Shuni ta'kidlash joizki davlat xizmatchilarini rag'batlantirish va samaradorligini oshirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi quyidagi quyi tizimlardan foydanishni taqazo qiladi;

- xodimlarni rejalashtirish;
- mehnatga haq to'lash;
- professional rivojlanish;
- karerani rivojlantirish;
- ijtimoiy kafolatlar;
- axloqiy va psixologik rag'batlantirish;
- moddiy-texnik mehnat sharoitlari;
- axborot ta'minoti;

Ushbu tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning regulyatori mehnat motivatsiyasi davlat xizmatchilari bilan suhbatlashish orqali ularning faoliyatini rag'batlantirish va demotivlashtirishning eng muhim omillari bo'yicha amalga oshiriladigan xodimlarning motivatsiya darajasining o'zgarishini nazorat qiladi. Bu monitoring motivatsiyani rostdash uchun zarur ta'sirlarni aniqlash imkonini beradi.

O'zbekiston davlat xizmatchilarini o'z mehnat faoliyatiga bo'lgan qiziqishlarini oshirish kerak buning uchun avvalo to'g'ri rag'batlantirishni yo'lga qo'yishdir. Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, davlat xizmatchilarini baholab borish kerak. Davlat xizmatchilarini ikki tomonlama baholash amalga oshiriladigan bunday yondashuv nafaqat o'tmishdagi, balki kelajakdagi, istiqbolli faoliyatlarga e'tiborni ta'minlaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Xojiyev E. T. Davlat xizmati : o'quv qo'llanma / E. T. Xojiev, G. S. Ismailova, M. A. Raximova.
2. Mehnat tartibga solish va davlat xizmatchilari professional faoliyatini optimallashtirish muammolari, usullari K. H. Abduraxmanov, I. A. Badaeva, L.V.Vagina
3. Abdurahmonov Q.X. va b. Personalni boshqarish. Darslik.-T.: "Iqlisodiyot", 2013-356 b.
4. Административное право. Москва, Юристъ, 2000, 211-216-б.
5. <https://sof.uz/z58>;
6. [https://www.norma.uz/nashi\\_obzori/gosslujashchih\\_ocenyat\\_po\\_kpi](https://www.norma.uz/nashi_obzori/gosslujashchih_ocenyat_po_kpi)